



IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA TURIZM INDUSTRIYASINING ROLI

Mirzayeva L.Sh

“Khiva Farovon” mehmonxonasi
menejeri, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda turizm industriyasining roli va imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, turizm industriyasi, xizmat, turistik xizmat, konsentratsiya.


Bugungi kunda turizm sohasi butun dunyo bo‘ylab rivojlanib bormoqda. Ya’ni, jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Bu borda global turizm 2023-yilda jahon mintaqalarida kiruvchi oqimlar sifatida notekis tiklanmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida dunyo bo‘ylab 975 mln. nafar xalqaro turistlar safari qayd etilgan. Bu esa 2022-yilning shu davriga nisbatan 38 foizga ko‘pdir. 2023-yilning uchinchi choragida dunyo mintaqalari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 22 foizga ko‘proq xalqaro turistlarni qabul qilgan [1]. Ushbu turizmning rivojlanish ko‘rsatkichlari bevosita turizm industriyasini taraqqiy qilishini ta’minlaydi. Shunday ekan, turizm industriyasi turizmning rivojlanishi uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning tarmoqlararo majmuasini aks ettiradi. Bu borada turizm ehtiyojlarini to‘liq va har tomonlama qondirish turizm industriyasi obyektlari va tashkilotlarining muvofiqlashtirilgan ishlashini talab qiladi.

Turizmda ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmining o‘shish dinamikasi boshqa sohalarga qaraganda ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga olib keladi. Turistik xizmatlarga bo‘lgan talabning o‘shishi turizm biznesida yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Turizm faoliyat shakli sifatida hafta, oy va yil davomida davriy takrorlanish bilan yashash joyiga qaytgan kishilar harakatidir [2]. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ortiq turizm turlari



mavjud. Turizm sohasi sayohat va ekskursiyalarni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Aholining turli qatlamlarini birlashtiradi va yuqori professional yondashuvni talab qiladi. Har bir mamlakatda turizm faoliyati davlat darajasida tashkil etiladi. Turizmning barqaror rivojlanishi sohasidagi tadqiqotlardagi mavjud muammolar ekologik baholash tizimi zaruriyati, zamonaviy ahamiyati va turizm industriasining hududiy taqsimotini ishlab chiqish orqali ta'minlanadi [3]. Turizm yirik iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishdan tashqari turli din va madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro tushunish va ishonch chegaralarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Uning faoliyati tovarlar va xizmatlar savdosi hamda yangi savdo sheriklarini izlab topish bilan cheklanib qolmaydi. Shuningdek, u jahon mamlakatlari aholisi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiradi.

Turizm industriyasi - mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko'ngilochar obyektlar va vositalar, ta'lim, tadbirkorlik, dam olish, sport va boshqa obyektlar, turoperator va sayyohlik agentliklari faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, shuningdek ekskursiya xizmatlari, gidlar va tarjimonlar xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlardir. Ushbu tasnifdan kelib chiqib, turizm infratuzilmasi tarkibi quyidagi unsurlarga ajratiladi (1-rasm).



1-rasm. Turizm industriasining tarkibiy qismlari¹

¹ Muallif ishlanmasi.



Ushbu 1-rasmga asosan, turizm industriyasining tarkibiy qismlari turistik mahsulotni shakllantirishda faol qatnashadi. Shunga asosan, turizm industriyasi o'z ichiga turistik mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish, turistik resurslarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish hamda turizmning moddiy-texnik bazasini yaratishni ta'minlaydigan moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar majmuini qamrab oladi.

Turizm industriyasida haqiqiylikni saqlab qolish va turistlarga samarali xizmat ko'rsatish uchun mavjud qulayliklarni samarali nazorat qilish, shuningdek, ko'payib borayotgan turistlar sonini qondirish uchun mavjud imkoniyatlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu imkoniyatlarni kengaytirish shunchaki harakat emas, ya'ni yetarli mablag' va puxta rejalashtirishni talab qiladi. Shu bois, turistlar kelishini oldindan kutish noaniqliklarni yumshatish va qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytirish uchun zarur. Shu munosabat bilan, jahon mamlakatlarifa turizm industriyasini aniqlash usullari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, samaradorlikni oshirish uchun iqtisodiy rejalashtirish va siyosatini ishlab chiqishning zarurligini aks ettiradi. Bu holatda turizm industriyasining samarali taraqqiyoti uchun samarali turizm strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, turistlarning kelishini aniqlash uchun turistik xarajatlar, diqqatga sazovor joylarga sayohat xarajatlari, xaridlar qaydlari va ovqatlanish xarajatlari kabi boshqa ishonchli vositalardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shular bilan birgalikda, turizm industriyasi ixtisoslashuv, kooperatsiya va ishlab chiqarish konsentratsiyasi jarayonlari bilan ajralib turadi hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Turizm industriyasida ixtisoslashuv turar-joy binolarini (mehmonxonalar, motellar, botellar va flotellar) keng rivojlantirish, turli xizmat ko'rsatish, ovqatlanish va ko'ngilochar korxonalar faoliyatidagi o'zgarishlar, yangi turistik xizmatlar sonining ko'payishi hamda turlarning xilma-xilligi va boshqa unsurlarda to'liq namoyon bo'ladi. Ixtisoslashuv jarayonlari turizm sohasidagi korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning murakkablashishiga olib keladi. Bu esa turistlar ehtiyojlarini to'liq qondirish va ularga



xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida ularning hamkorligini amalga oshirishni talab qiladi.

Turizm industriyasida kooperatsiya - turistik xizmatlar va tovarlarni ishlab chiqarish va tashkil etish bo'yicha ixtisoslashgan, ammo mustaqil korxonalar o'rtasida doimiy iqtisodiy aloqalarni tashkil etish shakli bo'lib hisoblanadi. Turizm amaliyotida funksional, tarmoqlararo, mintaqaviy, milliy va xalqaro turizm industriyasi shakllari uzoq muddatli shartnomaviy kelishuv shaklida namoyon bo'ladi. Kooperatsiya jarayonlari turistik mahsulotni shakllantirish, keng targ'ib qilish va sotish bilan shug'ullanadigan turistik korxonalar tomonidan samarali amalga oshirilishi zarur. Shu bilan birga, hamkorlik o'z-o'zidan maqsad sifatida emas, balki turistik xizmatlar sifatini oshirish, vaqt, kuch va xarajatlarni tejash vositasi sifatida ishlaydi. Turizm industriyasida hamkorlik turistik mahsulotni yaratish uchun ishlab chiqarish va uni amalga oshirishga imkon berishi mumkin. Turizmning ommaviy rivojlanishi ishlab chiqarish konsentratsiyasi jarayonlarining rivojlanishiga olib keladi.

Turizm industriyasida ishlab chiqarishning konsentratsiyasi alohida ishlab chiqarish birligini yanada mustahkamlash va keng doiradagi korxonalarni birlashtirish doirasida konsentratsiya orqali sodir bo'ladi. Bunda turizm industriyasi turizm va turistik korporatsiyalarning shakllanishi bilan to'la tavsiflanadi. Bu bir nechta turoperator firmalarining birlashishi, sotib olinishi yoki qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan yirik turistik biznes korxonalari bo'lib hisoblanadi. Turistik korporatsiyalar xorijiy sayyohlik agentliklari tarmog'iga ega bo'lib, ular orqali sayohatlar va turistik xizmatlar amalga oshiriladi.

Turizm industriyasini rivojlantirishning zamonaviy bosqichi to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish aloqalariga ega bo'lgan korxonalar (aviakompaniyalar faollashayotgan paytda) va iqtisodiyot tarmoqlari (banklar, sanoat, savdo va sug'urta kompaniyalari) korxonalarining turistik biznesga kirib borishi bilan belgilanadi. Bu borada tashqi muhitdagi o'zgarishlar turizm industriyasini rivojlantirish uchun muammolar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Bu esa sohaning innovatsion mexanizmida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Tadqiqotlar siyosat, iqtisodiy omillar hamda sanoat va bozor



talabi kabi turizm sanoatidagi innovatsiyalarga ta'sir etadi. Bunda bilim almashish va aloqador joylashtirish vositachilik rolini bajaradi. Mavjud tadqiqotlarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun turizm industriyasi innovatsiyalarining ta'sir mexanizmini empirik tarzda sinash uchun muvozanatli ma'lumotlarni tanlaydi.

Turizm industriyasining tarkibi qismi sifatida transport korxonalarini o'zlarining mehmonxonalar bazasi asosida alohida xizmat turlari va mustaqil ravishda ishlab chiqilgan turlarni taqdim etadilar. Bu borada aviatsiya kompaniyalari alohida ajralib turadi. Aviakompaniyalar tomonidan turlarni shakllantirish va sotishga ixtisoslashgan aviatsiya va turoperator firmalari tashkil etiladi. Bu borada turoperator tomonidan me'yoriy sharoitida mehmonxonalar va boshqa korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlari asosida turistlarga xizmat ko'rsatish tashkil etiladi. Hamda turizm industriyasida turistik biznes boshqa transport korxonalariga faol joriy etiladi. Xususan, unga asosan, yuk tashish kruizlarni tashkil qiladi, temir yo'l xizmatlari imtiyozli tarif bo'yicha va marshrut bo'ylab shaharlarda ekskursiyalar narxini o'z ichiga olgan holda ekskursiyalarni taklif qiladi hamda avtobuslar mustaqil ravishda avtobus turlarini tashkil qiladi.

Turizm industriyasida savdo kompaniyalari turistik xizmatlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Dastlab, savdo korxonalarini mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga intilib, sayyohlik agentliklari faoliyati uchun o'z binolarini ijaraga beradilar. Keyinchalik, turistik xizmatlarga talab oshib borib, ular rasmiy mustaqil sayyohlik kompaniyalarini tashkil etadilar. Keyinchalik, ular turoperatorlar va sayyohlik agentliklari funksiyalarini bajaradigan sho'ba firmalariga aylanadilar. Savdo firmalari charter samolyotlari bilan sayohat qilishni tashkil qiladi. Savdo firmalari muvaffaqiyati taklif qilayotgan turlarning narxi sayyohlik agentliklariga qaraganda 5-10 foiz past bo'lganligi sayyohlik agentliklariga to'lanadigan to'lovlarni tejash hisobiga imkon beradi. Mamlakatlar bo'ylab yuborilgan kataloglarda turistik sayohat shartlarini joylashtirish orqali ular ekskursiyalarni reklama qilish uchun zarur bo'lgan mablag'ni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi.



Shular bilan birgalikda, turizm biznesiga xizmat ko'rsatadigan sohalarga oid turizm industriyasi korxonalari turistik firmalarni sotib oladi va o'z tarkibiga kiritadi. Avtomobil korxonalari turizm sohasiga asosan korxonalar tomonidan turistik xizmatlar ko'rsatish orqali kirib boradi. Turizmدا konsentratsiya jarayonida esa bank va sug'urta tuzilmalari faol ishtirok etadilar. Ular turoperatorlar korxonalariga aylanib, banklar va sug'urta kompaniyalari tomonidan mijozlari orasida tarqatiladi. Banklar va sug'urta kompaniyalari o'zlarining avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi va boshqaruv tizimlariga ega bo'ladilar. Bu reklama va ma'lumotlarni maqsadli ravishda yuborish hamda mijozga uning qiziqishlari va vositalariga mos keladigan turlarni taklif qilish imkonini beradi. Ko'pgina potensial sayyohlarning bankda hisobvaraqlari bo'lganligi sababli ular uchun to'g'ridan-to'g'ri o'z banklari bilan ishlash qulayroq va foydaliroq bo'ladi.

Turizm industriyasida ekskursiyalarni tashkil etish va ularni amalga oshirishdan tashqari banklar va sug'urta kompaniyalari mehmonxonalar, transportda avtomatlashtirilgan bron qilish tizimlarini yaratish, avtoulavlarni ijaraga berish tarmog'ini shakllantirish va boshqa xizmatlarni taqdim etishda ishtirok etadilar. Bunda ishlab chiqarishni birlashtirish jarayoni alohida tarmoqlar hamda xalqaro korxonalarni yaratish orqali milliy chegaralardan tashqariga chiqadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda turizm industriyasining rolini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- turizmni infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- turizm siyosatini samarali va izchil amalga oshirish;
- turizmni samarali boshqarish tizimini yaratish;
- turizmni loyihalarini ishlab chiqarishga keng joriy qilish;
- turizm infratuzilmasiga ta'sir qiluvchi omillarini aniqlash;
- turizm infratuzilmasini o'zaro integratsiyalashtirish;
- turizm sohasiga ichki va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish;
- turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- turizmда davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan foydalanish;
- turizmда raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalarini qo'llash;



- turizm biznesida raqobat muhitini yanada rivojlantirish;
- turizm biznesini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.atorus.ru/node/54912>
2. Матюхина Ю.А. Индустрия туризма [Электронный ресурс]: учеб. пособие / Ю.А. Матюхина. - 2-е изд., стер. - М.: ФЛИНта, 2013. - с. 18
3. Xu A., Wang Ch., Tang D., Ye W. Tourism circular economy: Identification and measurement of tourism industry ecologization. // Ecological Indicators, 144 (2022), 109476. - pp.3